

## TASAVVUFDA NAFS TARBIYASI

**Abdullayeva Nilufar Ibragim qizi**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek adabiyotshunosligi 1-bosqich magistranti

E-mail: [nilufarabdullayeva789@gmail.com](mailto:nilufarabdullayeva789@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tasavvuf tariqatida nafs tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilganligi va uning turli darajalanishlari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, nafs va uning turli xil ko‘rinishlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tasavvuf, nafs ammora, nafs lavvoma, nafs mutmaina, “Lison ut-tayr” dostoni.

Tasavvuf-islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo‘llovchi ta’limot. Tasavvuf so‘zining o‘zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildiradi. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e’tirof etiladi. U “Muqaddima” asarida tasavvuf “suvf”, “jun, po‘stin” so‘zidan olingan bo‘lishi kerak, zero jundan to‘qilgan kiyim yoki po‘stin kiyib yurishni odat qilganlar”. Najmiddin Komilov “Tasavvuf” kitobida ham shunday fikrlar keltirib o‘tiladi. “Yana bir guruh olimlar “sufuf” so‘zidan yasalgan deydi va sufuf -biror bir narsaning xulosasidir”- degan fikrlarni keltirib o‘tadi<sup>1</sup>. Tasavvuf turlicha talqin qilingan, masalan, Ma’ruf al Karxiy fikricha “Tasavvuf-haqiqat sari intilish, odamlardan ta’magirchilik qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir” desa, Junayd al Bog‘dodiy “Tasavvuf qalbni sof tutmoq, tug‘ma zaiflik va nafsoniy tuyg‘ular ustidan g‘alaba qilmoq” deb ta’rif beradi. Misrlik olim Ibrohim Basyumiy “Islomda tasavvufning paydo bo‘lishi” kitobida hijriy 3 va 4 asrlarda yashagan olimlarning 40 ta ta’rifini keltiradi. Islomga ko‘ra yomonlik, gunoh amallarning yana bir manbasi insonning o‘zi, ya’ni nafsidir. “Men

nafsimni oqlamayman, chunki nafs agar parvardigorimning o‘zi rahm qilmasa, albatta, barcha yomonliklarga buyurguvchidir.(Yusuf -53) Bu Yusuf alayhissalomning tili bilan Qur’oni Karimda bayon etilgan.

“Aniqki, insonni biz yaratganmiz (demak) uning nafsi, vasvasa qiladigan, ya’ni ko‘ngildan o‘tgan barcha narsalarni ham bilurmiz” (Qof-16).Yunus Emro aytganidek “Ichimizda bir men bor,menda mendan ichkari”.

Shayton vasvasasi bilan nafs vasvasasi orasidagi farqni mutasavvufklar shunday farqlaydilar.Shayton o‘yindan o‘yinga o‘taveradi,nafs esa bir narsani qaysarlik bilan talab qilib turaveradi.Shayton mohir yolg‘onchi va hiylakor bo‘lgani bois ,insonni olloh roziligidan chalg‘itish maqsadida bir gunohga undolmasa,boshqa bir gunohni taklif qiladi, bir o‘yinda insonni laqillatmasa, ikkinchi bir o‘yinni tatbiq etadi. Ammo nafs qaysar yosh boladek yopishib olgan narsasini xoxlab turaveradi. Inson nafsi aslida keraksiz narsa emas ham. Payg‘ambarimiz (s.a.v) "Nafsing ulovingdir, unga yumshoq muomalada bo‘l, qo‘pollik qilma” dedilar.

Islomda nafsning ba’zi istaklar tabiiy sanaladi.Ushbu istaklar halol yo‘llar orqali qoniqtirilishi dinimizning amridir. Yemoq, aql jihatdan halol tabiiydir. Uyqu, insondagi kuch-quvvat to‘plash manbayi bo‘lib,navbatdagi kunni tetik o‘tkaza olishi uchun uyqu talab qilinadi. Oila qurish,naslu-nasabning davom etishi,insonning huzur halovatda turmush kechirishi uchun tavsiya etiladi. Nafsning shunday orzu istaklar borki,ular g‘ayri tabiiydir. Ularga qarshi kurashish, islomning asosiy talabidandir. Chunki, bu xoxish-istaklar insonning tuyg‘ularini zararli jihatlarga yo‘naltiradi. Tasavvuf tariqatida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan. Bular “Nafsi ammora”, “Nafsi lavvoma”, “Nafsi mutmaina”lardir.

Nafsi ammora-insonni tamomila o‘z jiloviga olgan,har qanday og‘ir gunohlarga boshlovchi,tarbiyaga bo‘ysunmagan,o‘jar nafs. Quroni Karimdagi “Yusuf”surasi bunga misol bo‘la oladi<sup>2</sup>.

“Nafsi lavvoma” – gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda qiynala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati. Quroni Karimning "Qiyomat" surasi eslanadi.<sup>3</sup>

Nafsi mutmaina – sokin muvozanatga erishgan, xotirjam gunohlardan tiyilgan nafs. Quroni Karimning "Al-fajr" surasida eslanadi.<sup>4</sup>

Bundan tashqari yana quyidagi holatlari mavjud:

Nafsi mulhassa-ilhomlangan nafs tarbiyasi, bu darajasiga erishgan insonlar o‘zgalarga beminnat yordam ko‘rsatishga moyil bo‘ladi. Savob uchun vaqtini, molini ham ayamaydilar. Nafsi marziya-rozi bo‘lgan nafs, Alloh taqdir etgan yaxshi yomon ishlarga sabr qiluvchi, turmush og‘irliklariga bardoshli, odamlarning noo‘rin munosabatlaridan xafa bo‘libgina qilmaydigan insonlar nafsi.

Nafsi sofiya-dunyo orzu havaslaridan, obro‘ e‘tiborga intilish tamoyillaridan butkul forig‘lik darajasiga erishgan nafs. Murshidlar, valiyar nafsi.

Nafsi komila – payg‘ambarlar nafsi. Oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo‘lishga intilish ma‘naviyat nishonasi. Nafsni yengishni sodda qilib, insonning barcha yomonlik ya‘ni illatlaridan forig‘ bo‘lishi faqat yaxshilik qiladigan kishiga aylanishi deb tushunish kerak. Chunki, tasavvufni o‘zining mafkurasi deb hisoblagan hazrati A.Navoiy asarlarida bunga ko‘p duch kelamiz. “Lison ut tayr” dostonida shunday baytlar bor.

*Chun riyozat raf etibron homiyat,*

*Salb bo‘lg‘och kimsadin nafsoniyat.*<sup>3</sup>

Aslida, inson vujudidagi nafs manbai inson badanini yemiradigan, qurtday o‘yadigan bir baloyi azimdir. Shu sabab undan qutulish va najot topish va inson uchun eng sharaflig‘ ish hisoblanadi. Shu inson halol, suvday pok bo‘ladi va Alloh visolig‘a erishadi. So‘fiylarning nafs haqidagi dasturi payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning quyidagi aytganlari bo‘lgan: “Dushmanlarini dushmanoni tu nafsi, tust dar moyini du pahlui tu”, ya‘ni “Sening eng buyuk dushmanlaring ikki yonboshing orasidagi nafsingdir”<sup>4</sup>.

Nafsni rad etib, undan qutulish, albatta, oson ish emas. Nafs ayrim manbalarda jon sifatida ta'riflanadi. Demak, nafsdan ayrilish, jondan judo bo'lish demakdir. Ularning bir vositasi Zohidning azob uqubatga berilishi va og'ir mashg'ulotlar bilan band bo'lishida edi. Zohid nafsni tahqirlash uchun qattiq azobga berilgan va u qancha azob cheksa, chidaydi. Faqat, nafs g'alaba qilmasa bas, bo'lmasa boshqalar uning zohidligiga ishonmagan bo'lardi. Zero, zohid, albatta, nafsdan hazar qilishi va uni rad etishi kerak bo'lgan.

Xulosam, sifatida, Hakim Termiziyning shu jumlasini keltirmoqchiman: "Bir shaytonning bir soat ichida halok aylaganini yuz och arslon bir suruv qo'y ichida halok aylay olmas. Nafsning bir soat ichida qilgan ishini yuz shayton qila olmas".

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://hozir.org/mavzu-tasavvuf-ilmi-paydo-bolishi.html>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tasavvuf>